

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
(2019-yil 1-iyun holatiga)










2019-yilning yanvar-may oylarida Viloyatda 1390 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 710 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1669 ta (16,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 11542 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1501	1333	158
 Sanoat	1605	1512	288
 Qurilish	1141	1075	154
 Savdo	3318	3098	460
 Tashish va saqlash	611	564	22
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	794	747	157
 Axborot va aloqa	172	163	14
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	137	135	7
 Boshqa turlari	3056	2915	130



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
(2019- yil 1-iyun holatiga)

2019-yilning 1-iyun holatiga 12335 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 26,9 % savdo, 13,0 % sanoat, 9,3 % qurilish, 12,2 % Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,0 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 24,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3806 ta), Sirdaryo (1949 ta), Sayhunobod (1008 ta) va Boyovut (944 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (277 ta), Sardoba (494 ta) hamda Oqoltin (523 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 11542 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1669 ta (16,9 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,8 % savdo, 13,1 % sanoat, 9,3 % qurilish, 11,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,9 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3574 ta), Sirdaryo (1777 ta), Sayhunobod (974 ta), Boyovut (910 ta) va Guliston (861 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (252 ta), Sardoba (477 ta) hamda Xovos (556 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-may oylarida 1390 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 104,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shahri (361 ta), Sirdaryo (236 ta) va Boyovut (126 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (25 ta) hamda Xovos (68 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (460 ta), sanoat (288 ta), qurilish (154 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (157 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (7 ta), axborot va aloqa (14 ta) hamda tashish va saqlash (22 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.06.2017 y.		01.06.2018 y.		01.06.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	741	100,0	680	100,0	1390	100,0
Savdo	170	22,9	170	25,0	460	33,1
Sanoat	141	19,0	102	15,0	288	20,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	162	21,9	125	18,4	158	11,4
Qurilish	66	8,9	96	14,1	154	11,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	62	8,4	46	6,8	157	11,3
Tashish va saqlash	50	6,7	18	2,6	22	1,6
Axborot va aloqa	13	1,8	8	1,2	14	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	0,5	7	1,0	7	0,5
Boshqa turlari	73	9,9	108	15,9	130	9,3

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






TIJORAT KORXONALARI.

2019-yil 1-iyun holatiga 9492 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2833 ta, oilaviy korxonalar – 149 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6203 ta va boshqalar 307 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. (2019- yil 1-iyun holatiga)

2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 122 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 taga yoki 32,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumani (50 ta yoki jami ulushi 41,0 %), Guliston shahri (27 ta yoki 22,1 %) va Yangiyer shahri (15 ta yoki 12,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xovos tumani (1 ta yoki 0,8 %), Guliston tumani (1 ta yoki 0,8 %) va Sardoba tumani (2 ta yoki 1,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 85 tani (69,7 %), savdoda 16 tani (13,1 %) hamda boshqa tarmoqlarda 5 tani (4,1 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 4 tani (3,3 %), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 4 tani (3,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 tani (0,8 %), axborot va aloqa 1 tani (0,8 %), tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 19 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Qozog'iston Respublikasi – 4 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi -4 ta, Tojikiston -3 ta, hamda -3 tasi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, 2019-yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (10 ta), savdo (6 ta), qurilish (2 ta), axborot va aloqa (1 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2018-yil yanvar-may		2019-yil yanvar-may	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Jami	8	100,0	19	100,0
Sanoat	6	75,0	10	52,6
Savdo	-	-	6	31,6
Qurilish	1	12,5	2	10,5
Axborat va aloqa	-	-	1	5,3
Tashish va saqlash	1	12,5		



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
(2019- yil 1-iyun holatiga)


2019-yil 1-iyun holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 9444 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-iyun holatiga qaraganda 19,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3077 tasi (32,6 %) Guliston shahri, 1517 tasi (16,1 %) Sirdaryo, 802 tasi (8,5 %) Sayhunobod hamda 700 tasi (7,4 %) Yangiyer shahri hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 9444 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3088 tasi (32,7 %) – savdo, 1489 tasi (15,8 %) - sanoat, 1070 tasi (11,3 %) - qurilish, 1315 tasi (13,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 745 tasi (7,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 561 tasi (5,9 %) - tashish va saqlash, 156 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasi, 89 tasi (0,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 931 tasi (9,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-may oylarida 1331 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 15,0 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (339 ta), Sirdaryo (232 ta), Mirzaobod (100 ta) va Boyovut (118 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (22 ta), Oqoltin (75 ta) hamda Xovos (66 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (460 ta), sanoatda (288 ta), qurilishda (154 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (158 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (157 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (7 ta), axborot va aloqada (14 ta) hamda tashish va saqlashda (22 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-iyun holatiga 154 tani tashkil etib, ulardan 149 tasi yoki 96,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 46,3 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 45,6 % yoki 68 tasi sanoat, 16,8 % yoki 25 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,1 % yoki 24 tasi savdo, 14,1 % yoki 21 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 5,4 % yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa Axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi Statistika registrlarni
yuritish bo'limi Tel.:67-225-31-00